Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar	609
O'rmonov Elmurod Mamasoliyevich	



Umumta'lim maktabi o'quvchilarining kreativ fikrlashini tarbiya darsligi vositasida rivojlantirish	612
<i>Abdisharipova Shaydo Bahtiyor qizi</i>	
The Effectiveness of Visual Teaching Methods in Developing Self-Directed Learning Competence Among Undergraduate Mehnat Muhofazasi va Texnika Xavfsizligi Students	615
<i>Abdullayeva Mukhlisakhon Akhrorjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashda xorij tajribasi	620
<i>Aliyeva Ravshanoy Zaripovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning tashkiliy shakllari va ta'lim vositalari	624
<i>Daniyarova Sarbinaz Maxsetovna</i>	
Nutq madaniyatini shakllantirishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari	627
<i>Davlatova Nigora Berdimurot qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikni tizimli boshqarishning ilmiy-pedagogik asoslari	631
<i>Fotima Uralovna Jumanova, Muxamatova Gulmira Erkinjon qizi</i>	
Yosh mutaxassislarda ijtimoiy muhitga moslashishda emotsional intellektning namoyon bo'lishi	635
<i>G'affarova Nazira Fayzulla qizi</i>	
Ko'p ma'noli so'zlarning badiiy matnda qo'llanilishi	639
<i>G'ulomova Zilola Rafiqjon qizi</i>	
Oilaviy munosabatlarda er-xotin bir-birini o'zaro tushunishining o'ziga xosligi va ahamiyati	642
<i>Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna</i>	
Gospital maktablar faoliyatini tashkil etishda Buyuk Britaniya, AQSh, Finlyandiya, Germaniya va Gretsiya tajribalardan foydalanish	646
<i>Isakulova N. J.</i>	
Interactive Approaches to Developing EFL Learners' Listening Skills	650
<i>Isayeva Umida</i>	
Global o'zgarishlar sharoitida yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari	653
<i>Kudratova Lola Ravshanovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tezkor hisoblashga o'rgatishning samarali usullari	656
<i>Mamasaidova Muhabbat Abdusalom qizi, Akbaraliyeva Marjona Xurshid qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida bolalarga ingliz tilini o'rgatish	660
<i>Marasulova Dono Nigmatullayevna</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanib 10-sinfda fizika masalalarini o'rgatish metodikasi	665
<i>Matenova Go'zzal Djumabayevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga ona tilini o'qitish metodlarini takomillashtirish	671
<i>Muminova Munajat Yuldashevna</i>	
Bolalarning etnopsixologik xususiyatlarini rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlari	675
<i>Norbekova Barno Shavkatovna</i>	
Qashqadaryo viloyati maktablarida yangi baholash tizimini joriy etishning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'siri	679
<i>Panjiyev Maqsud Aliqulovich</i>	
O'zbek tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini tanlash mezonlari	683
<i>Polvonova Shahnoza Faxriddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda yil fasllariga oid materiallarni innovatsion-integratsion yondashuvlar asosida o'rgatish metodikasini samaradorligini oshirish	686
<i>Rajabova Muxayyo Komilovna</i>	
Pedagogik jarayonda bilimlar integratsiyasi orqali tahlil qobiliyatini shakllantirish yo'llari	691
<i>Rustamova Latofat Istam qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar	694
<i>Rustamova Manzura Mirkamolovna, Zamira Talipova</i>	
Zamonaviy raqamli jamiyatda oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi va uning yoshlar ongiga ta'siri	697
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna</i>	

Insondagi hayotiy tanlov bilish psixologiyasining sohasi sifatida.....	703
S. S. Shukurulloeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish	708
Sharofova Feruza Qavmiddinbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanish.....	713
Xilola Ochilova Sheraliyevna	
Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda munosabatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari.....	716
Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Ibodullayeva Sharifaxon Oybek qizi	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	721
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
O'smirlik davridagi inqiroz va uning muammolarining psixologik rivojlanish mexanizmlari	725
Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Maksudbekova Shaxzoda Sherzod qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xosligi	730
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Menlimuratova Gulsanem	
Взаимосвязь защитных механизмов и психологической устойчивости подростков в условиях цифровой среды	734
Алимова Елена Геннадьевна	
Narrativ materiallar vositasida oilada o'smir yoshdagi bolalarda kitobxonlikni shakllantirish texnologiyalari.....	740
Yunusova Shahnoza Axror qizi	
Интеграция мультипликации в образовательную среду доо как средство всестороннего развития личности ребенка	745
Терехова Ольга Евгеньевна, Аллазарова Мадина Давронбековна	
Совершенствование речевой культуры студентов	749
Пардабоева Дильфуза Рустамовна	
Использование потенциала искусства в формировании эмоционального интеллекта и социальной компетентности дошкольников	752
Терехова Ольга Евгеньевна, Сайфидинова Мунира Бурхонидиновна	
Теоретические основы проектирования инновационных моделей формирования коммуникативной готовности к школе	756
Терехова Ольга Евгеньевна, Абдурауфова Хилолахон Шахобитдин кизи	
Теоретико-методологические основы формирования логического мышления старших дошкольников посредством интеграции традиционных и интерактивных игр	760
Терехова Ольга Евгеньевна, Рахимова Гулноз Эркиновна	
От репродукции к авторству: поэтапная система развития языковой креативности в старшем дошкольном возрасте	764
Терехова Ольга Евгеньевна, Каримова Регина Равильевна	
Опытно-экспериментальное исследование формирования нравственно-волевых качеств дошкольников в условиях доо средствами национальных игр	768
Терехова Ольга Евгеньевна, Хакимова Одина Шермухамматовна	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA O'RTASIDAGI HAMKORLIKNI TIZIMLI BOSHQARISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Fotima Uralovna Jumanova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri professor

Muxamatova Gulmira Erkinjon qizi

"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi 2-kurs magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik, pedagogik hamkorlik hamda zamonaviy ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hamjihatlikka asoslangan faoliyatlar xususida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: intellektual, axloqiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, "ijtimoiy-pedagogik sheriklik", "ta'limiy hamkorlik".

Abstract: This article examines collaboration between preschool educational institutions and families, pedagogical collaboration, as well as activities based on mutual solidarity among all participants in the modern educational process.

Key words: intellectual, moral, physical, and social development, "social-pedagogical partnership," "educational collaboration."

Аннотация: В данной статье рассматриваются сотрудничество между дошкольной образовательной организацией и семьей, педагогическое сотрудничество, а также деятельность, основанная на взаимной солидарности всех участников современного образовательного процесса.

Ключевые слова: интеллектуальное, нравственное, физическое и социальное развитие, "социально-педагогическое партнёрство", "образовательное сотрудничество".

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, unda tarbiya va ta'lim jarayonlarining sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo'lib, aynan shu davrda uning intellektual, axloqiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishining poydevori yaratiladi. Mazkur jarayonda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab hollarda ushbu hamkorlik tizimli yondashuv asosida yo'lga qo'yilmayapti, natijada tarbiyaviy ta'sirlarning uzviyligi va uzluksizligi buzilmoqda. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tizimli yondashuv asosida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik hamkorlik tushunchasi turli yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar uni pedagog va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro axborot almashinuvi sifatida izohlasa, boshqalari hamkorlikni pedagogik jarayon subyektlarining teng huquqli sherikligi sifatida talqin etadilar. Ushbu qarashlarni umumlashtirgan holda, pedagogik hamkorlikni bolani har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yagona tarbiyaviy makon yaratish jarayoni sifatida tavsiflash mumkin. O'zbekistonlik olim va tadqiqotchilar M. X. Rahimova,

M. G. Abdufattoyeva, Z. Fayziyeva, M. Usmanova va boshqalarning ilmiy ishlarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan oila o'rtasidagi samarali hamkorlikning pedagogik ahamiyati keng yoritilgan.

Ingliz faylasufi Frensis Bekonning fikriga ko'ra, "Bola oilaning quvonchi, ota-onaning ko'magi, jamiyatning hayotiy kuchidir. Bolalar tufayli hayot yanada shirin, o'lim esa unchalik dahshatli ko'rinmaydi", degan fikrlar mazkur masalaning naqadar muhim va dolzarb ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek, Rossiya olimlari va tadqiqotchilaridan N. V. Korniyenko va I. N. Turyginalarning ilmiy-amaliy tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasini tashkil etish hamda ota-onalar bilan ishlash masalalariga oid hamkorlik pedagogikasining turli nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jamiyat hayoti, farzand tarbiyasi va yurt ravnaqi uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti nihoyatda muhim institut hisoblanadi. Har bir bolaning o'ziga xos ichki olami, fe'l-atvori va qiziqishlari turlicha bo'ladi. Shu bois ushbu beg'ubor olamni chuqur anglash, unga ma'no va mazmun bag'ishlash hamda bolaning "men"ini shakllantirish jarayonida ota-onalar bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ota-onalar bilan munosabatlarda yangi yondashuvlarni joriy etish, ularning shaxsiy tajribasini hisobga olish muhimdir. Ota-onalarning bilimiga bo'lgan ehtiyojlari, so'rovlari va istaklarini inobatga olgan holda bolalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi muammolarga muloqot mazmunini yo'naltirish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar shaxsiy manfaatdorlikni, eskicha qarashlardan xalos bo'lishni hamda o'z faoliyatiga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish usullarini qamrab oladi. Farzand ta'limi va tarbiyasini rivojlantirish tamoyiliga asoslangan mazkur hamkorlik bolalarning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini, o'z ta'lim faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini hamda ota-onalar tomonidan farzandini muntazam nazorat qilishni nazarda tutadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda jamiyat rivoji bilan birga "ota-onalik mas'uliyati" tushunchasi ham tobora keng qamrovli mazmun kasb etmoqda. Ota-ona farzandini moddiy jihatdan ta'minlash, uni tarbiyalash va ta'lim olishini tashkil etish bilan birga, uning shaxs sifatida kamol topishi uchun mas'uldir. Oiladagi tarbiya uzoq muddatli, uzluksiz va ko'p qirrali jarayon bo'lib, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar hamkorligining o'rni beqiyosdir. Oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borgan taqdirdagina ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin. Bu inkor etib bo'lmaz haqiqatdir. Har bir bola biz kattalar uchun bebaho gavhar, yangi unib chiqayotgan va parvarish talab qiladigan niholga qiyosdir. Shu sababli har bir ota-ona farzandi uchun, tarbiyachilar esa tarbiyalanuvchi kichkintoylar uchun qancha ko'p e'tibor, vaqt va mablag' sarflasa, shuncha ijobiy natijalarga erishiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan jamoaviy va yakkama-yakka ishlash shakllarini mohirona uyg'unlashtirish, keng jamoatchilik orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish orqali bolalar tarbiyasida samarali natijalarga erishish mumkin. Bejizga "bolalarni tarbiyalash – kelajakni tarbiyalashdir" deb aytilmagan.

Tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligining pedagogik asoslarini aniqlash, uning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biridir. Oila ijtimoiy institut sifatida bolaning shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bolaning dastlabki ijtimoiy tajribasi, axloqiy me'yorlari, nutqi va xulq-atvori asosan oilada shakllanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini oiladan ajratilgan holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Pedagogik nuqtayi nazardan oila bolaning birlamchi tarbiya muhiti bo'lib, unda tarbiyaviy ta'sirlar uzluksiz va tabiiy tarzda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti esa ushbu jarayonni ilmiy asosda tizimlashtiruvchi, yo'naltiruvchi va to'ldiruvchi muassasa vazifasini bajaradi. Demak, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik "ijtimoiy-pedagogik sheriklik", "ta'limiy hamkorlik" kabi tushunchalar orqali izohlanadi. Ushbu tushunchalar mazmunida tomonlarning teng huquqliligi, o'zaro mas'uliyati va yagona maqsad sari yo'naltirilganligi mujassamdir.

Maktabgacha ta'lim tizimida oila bilan ishlash shakllari turlicha bo'lib, ular ota-onalar yig'ilishlari, individual suhbatlar, treninglar, ochiq mashg'ulotlar hamda maslahatlar orqali amalga oshiriladi. Biroq ushbu faoliyat ko'pincha epizodik xarakterga ega bo'lib, yaxlit tizim sifatida tashkil etilmaydi. Shu nuqtayi nazardan, oila institutining pedagogik o'rnini tizimli yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keladi. Pedagogik hamkorlik zamonaviy ta'lim tizimining muhim konseptual tushunchalaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hamjihatlikka asoslangan faoliyatni anglatadi. Maktabgacha ta'lim



kontekstida pedagogik hamkorlik, avvalo, tarbiyachi, bola va ota-onalar o'rtasidagi maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan hamda uzluksiz aloqalarni qamrab oladi. Pedagogik hamkorlikning asosiy belgilariga umumiy maqsadning mavjudligi, o'zaro mas'uliyat, ishonchga asoslangan munosabatlar, faol muloqot va faoliyat natijalarini birgalikda baholash kiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligida ushbu belgilar yetarli darajada shakllanmagan taqdirda, tarbiyaviy ta'sirlar samarasiz bo'lib qoladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik hamkorlik faqat tashkiliy tadbirlar majmui bilan cheklanib qolmasligi kerak. U bolaning shaxsiy rivojlanish dinamikasini kuzatish, muammolarni birgalikda aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi. Bu esa hamkorlikning tizimli xarakterga ega bo'lishini taqozo etadi. Tizimli yondashuv zamonaviy pedagogika fanida murakkab pedagogik hodisalarni o'rganish va tashkil etishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuv har qanday pedagogik jarayonni o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Pedagogik tizim tarkibiga maqsad, mazmun, metodlar, vositalar, subyektlar va natijalar kiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tizimli yondashuv asosida tashkil etishda ushbu komponentlarning o'zaro uyg'unligi va izchilligi muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, hamkorlik alohida tadbirlar yig'indisiga aylanib qoladi. Tizimli yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: yaxlitlik, strukturalilik, funktsionallik, ochiqlik, rivojlanish va dinamiklik. Mazkur tamoyillar MTT va oila hamkorligiga tatbiq etilganda, hamkorlik jarayoni doimiy rivojlanib boruvchi, tashqi ijtimoiy omillarga moslashuvchan tizim sifatida shakllanadi.

Tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan hamkorlikda har bir subyekt – tarbiyachi, ota-ona va bola – muayyan funksiyaga ega bo'ladi. Tarbiyachi pedagogik jarayonni rejalashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi, ota-onalar esa faol ishtirokchi va sherik sifatida namoyon bo'ladi. Bola esa ushbu tizimning markaziy elementi hisoblanadi. Shunday qilib, tizimli yondashuv maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini ilmiy asosda tashkil etish, uning samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi masalasi nafaqat milliy pedagogika, balki xalqaro tajribada ham muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish barqaror pedagogik amaliyot sifatida qaraladi. Jumladan, Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya maktabgacha ta'lim tizimida oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan. Xorijiy tajribalarda ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkilotining teng huquqli hamkori sifatida e'tirof etiladi. Ular ta'lim mazmunini rejalashtirish va baholash jarayonlarida ishtirok etadi, shuningdek pedagogik qarorlar qabul qilishda o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday yondashuv ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish bilan birga, bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayonini ham jadallashtiradi.

Milliy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida oila bilan ishlash masalasi normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilangan. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida ota-onalar bilan hamkorlik muhim komponent sifatida ko'rsatilgan. Biroq amaliyotda mazkur hamkorlik ko'pincha an'anaviy shakllar – ota-onalar yig'ilishi, bayram tadbirlari va maslahatlar bilan cheklanib qolmoqda. Shu sababli xorijiy tajribadagi tizimli yondashuv elementlarini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish, ularni madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olgan holda joriy etish zarurati mavjud.

Tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tashkil etish, avvalo, ushbu hamkorlikning strukturaviy komponentlarini aniqlashni talab etadi. Strukturaviy komponentlar hamkorlik tizimining ichki tuzilishini belgilovchi asosiy elementlar hisoblanadi. Mazkur hamkorlik tizimining asosiy komponentlariga maqsadli komponent, mazmuniy komponent, faoliyatli komponent, tashkiliy-boshqaruv komponenti hamda baholash-natijaviy komponent kiradi. Maqsadli komponent bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan umumiy pedagogik maqsadni o'z ichiga oladi. Mazmuniy komponent esa MTT va oila hamkorligida amalga oshiriladigan tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi faoliyat mazmunini belgilaydi.

Faoliyatli komponent pedagoglar va ota-onalarning birgalikdagi amaliy faoliyat shakllarini qamrab oladi. Tashkiliy-boshqaruv komponenti hamkorlik jarayonini muvofiqlashtirish, rejalashtirish va nazorat qilish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Baholash-natijaviy komponent esa hamkorlik samaradorligini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlarini belgilaydi. Axborot-pedagogik muhit MTT va oila hamkorligining samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Ushbu muhit pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasida muntazam axborot almashinuvi, teskari aloqa va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda axborot-pedagogik muhitni shakllantirishda raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Elektron kundaliklar, ijtimoiy tarmoqlar, messengerlar va veb-platformalar ota-onalar hamda pedagoglar o'rtasidagi muloqotni tezkor va samarali qiladi. Biroq ushbu vositalardan foydalanishda pedagogik maqsadlar va axborot xavfsizligi talablariga qat'iy rioya etish zarur. Axborot-pedagogik muhit axborot berish, maslahatlashuv, monitoring va tahlil funksiyalarini bajaradi. Ushbu muhit orqali ota-onalar bolaning rivojlanish holati, muvaffaqiyatlari va muammolari haqida muntazam ma'lumotga ega bo'ladi. Bu esa tarbiyaviy ta'sirlarning izchilligini ta'minlaydi. Shunday qilib, axborot-pedagogik muhit MTT va oila hamkorligini tizimli yondashuv asosida tashkil etishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini samarali tashkil etishda ota-onalar bilan ishlash shakllari va metodlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu shakllar bolani rivojlantirish jarayoniga ota-onalarni faol jalb qilish hamda pedagogik ta'sirni uzluksiz amalga oshirishga xizmat qiladi. Ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- yig'ilishlar va uchrashuvlar, ya'ni bolaning rivojlanish xususiyatlari hamda tarbiyaviy vazifalar bo'yicha pedagogik tushuntirishlar beriladigan mavzuli yig'ilishlar;
- individual uchrashuvlar orqali bolaning individual rivojlanishi yuzasidan maslahatlar berish;
- treninglar va seminarlar orqali ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish hamda tarbiyaviy vaziyatlarda to'g'ri xulq-atvor strategiyalarini shakllantirish;
- ochiq mashg'ulotlar va kuzatuvlar jarayonida ota-onalarning bolalar bilan amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyatni bevosita kuzatishi va pedagogik jarayonni amaliy misollar asosida tushunishi;
- maslahatlar va psixologik yordamni tashkil etish orqali ota-onalarga bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlantirishiga oid tavsiyalar berish hamda muammoli vaziyatlarda psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash.

Ota-onalar bilan ishlash metodlari esa turli pedagogik yondashuvlarni qamrab oladi:

- konsultativ metod individual maslahatlar orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi;
- faol metod muammoli vaziyatlar, rol o'yinlari va tajribalar orqali ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga faol jalb etishni ta'minlaydi;
- axborot-metodik metod targ'ibot materiallari, elektron resurslar va kitoblar yordamida zarur axborotni yetkazishga yo'naltiriladi;
- monitoring va tahlil metodlari bolaning rivojlanish holatini kuzatish va baholash, shuningdek ota-onalarni erishilgan natijalar bilan tanishtirish imkonini beradi.

Mazkur shakl va metodlar tizimli yondashuv asosida uyg'unlashtirilgan taqdirda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligining samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga faol jalb qilish ularning pedagogik madaniyatini rivojlantiradi hamda bolaning ijtimoiy, intellektual va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tashkil etish bolalarning rivojlanishini rag'batlantiradi, pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi va ota-onalarni tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raximova, M. X. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning pedagogik shart-sharoitlari. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Abdufattoyeva, M. G'. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning o'zaro hamkorligi. – Toshkent: Sharq, 2024.
3. Mannopovna, J. O., Uralovna, J. F., Rahmatullayevna, M. S. Formation of artistic perception of future teachers // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020, 24(6). – P. 518–526.
4. Маҳкамов, У., Жуманова, Ф., Равшанов, Ж. Бўлажак ўқитувчиларни тарбиявий ишларини ташкил этиш ва бошқаришга тайёрлаш // Academic Research in Educational Sciences, 2020, № 3. – В. 815–830.
5. Жуманова, Ф. У., Жабборова, О. М. Учинчи ренессанс даврида бошланғич таълим // Academic Research in Educational Sciences, 2020, № 4. – В. 238–243.
6. Choriyeva, D. Oila va maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshiriladigan ijtimoiy vazifalar // Talqin va tadqiqotlar, 2023, 1(32).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.